

Ilmiy hamkorlik natijalari - dolzarb masalalar yechimi

2020-yil 25-martda Xitoy Fanlar akademiyasi Shinjon fizik-kimyoviy texnika instituti Xitoy Fanlar akademiyasi akademigi, O'zR FA Bioorganik kimyo instituti direktori, akademik Sh.I.Salixov rahbarligida yaratilgan va ishlab chiqarilayotgan "Rutan" preparati bir qator biologik faolliklarga tekshirilganlik bo'yicha ma'lumot taqdim qildi.

"Rutan" preparati organizmda endogen interferonning sintezini 8-10 marotaba kuchaytirib turli viruslarga qarshi kurashda immun statusini tezda oshiradi.

Xitoylik hamkorlar tadqiqoti natijasida "Rutan" preparati SARS-Cov-2 virusini gidrolaza orqali ingibirlash darajasi 78,3 % tengligi aniqlangan. Shu bilan birga qo'shimcha va nojo'ya ta'sirlari yo'qligi, toksiklik darajasi nihoyatda past bo'lgani uchun viruslarga qarshi qo'llanilayotgan boshqa dori vositalariga nisbatan uning davolash samarasi yuqori bo'lishi mumkin degan xulosa keltirilmoqda.

"Bu ayniqsa hozirda dunyoga xavf solayotgan COVID-19 virusini O'zbekiston aholisining orasida keng tarqalishini oldini olish uchun inson organizmining immun statusini oshiruvchi "Rutan" dori vositasi bilan profilaktika qilish juda zarurligini ko'rsatmoqda" - deyilmoqda Xitoy Fanlar akademiyasi Shinjon fizik-kimyoviy texnika instituti xulosasida.

Shinjon fizik-kimyoviy texnika instituti o'zining ta'sischiligida Toshkent shahrida tashkillangan va 2018-yilda ishga tushirilgan "China-Uzbekistan technical park" texnoparkida "Rutan" dori vositasini ishlab chiqarishni taklif qildi.